

SOFI OLLOYORNING “SABOT UL-OJIZIN” ASARIDAGI TASAVVUVIY G‘OYALAR

Nabijonova Diyoraxon Ne’matjon qizi

FarDU 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XVII asrning yirik tasavvufiy mutafakkiri va shoirlaridan biri – Sofi Olloyorning “Sabot ul-Ojizin” (“Ojizlar saboti”) asari mazmun-mohiyati, uning diniy-axloqiy, ma’rifiy, pedagogik va badiiy xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Asarning yaratilish maqsadi, kompozitsion tuzilishi, tasavvuf falsafasiga mansub g‘oyaviy qatlamlari, pandnoma an’anasidagi o‘rni hamda o‘zbek adabiy merosidagi ahamiyati ilmiy asoslangan holda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, pandnoma, ma’rifat, axloq, irfon, tariqat, didaktik meros, badiiy uslub, badiiy tahlil.

Sofi Olloyor (1644–1709) o‘zbek mumtoz adabiyoti va tasavvuf tafakkurining yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning “Sabot ul-Ojizin” asari ma’naviy-ma’rifiy fikr taraqqiyotining eng muhim manbalaridan hisoblanadi. Asar o‘z mohiyatiga ko‘ra pandnoma, ya’ni axloqiy-didaktik yo‘nalishdagi irfoniy qo‘llanma bo‘lib, unda insonning ruhiy kamoloti, nafsni tarbiyalash, ma’rifatga erishish, Haq yo‘lida sobitlik ko‘rsatish kabi tushunchalar markaziy mavzu sifatida aks etadi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, So‘fi Olloyor Naqshbandiya tariqatining yetuk vakillaridan bo‘lgan, uning asarlari o‘z davrida ham xalq, ham ilm ahli tomonidan keng o‘rganilgan. “Sabot ul-Ojizin” esa uning tasavvufiy ma’rifatini eng mukammal aks ettiruvchi pandnoma hisoblanadi. Ushbu asar axloqiy masalalar ustida chuqur falsafiy mulohazalarga asoslanadi va ko‘p asrlar davomida xalq orasida qo‘llanma sifatida o‘qib kelinadi. Tadqiqotchilar uni Sharq axloq falsafasining eng yuksak namunalariidan biri deb baholaydilar.

“Sabot ul-Ojizin” ning yozilish sababi avvalambor xalqni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, ularni har xil dunyoviy mayllardan tiyish va qalb pokligi sari etaklashdir. Sofi Olloyorning o‘zi ham tariqat ahlining yetuk vakili bo‘lgani bois, asarda keltirilgan har

bir pand-falon, nasihat va iboralar hayotiy tajriba, ruhiy mushohada va chuqur tasavvufiy idrok mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Shoir diniy-ilohiy mavzularni oddiy xalq tushunadigan sodda, ravon, ammo g'oyat chuqur ma'no kasb etuvchi badiiy til bilan ifodalaydi. Asar so'zlarining qisqa va lo'ndaligi hamda serma'noliligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi, axli sunna val jamoaning etiqodiy qarashlari o'zbek tilida nazmiy uslubda bayon etilgan. Turli mavzularda hikoyatlar keltiradi o'z fikrlarini xulosalab beradi. Bu haqida muallif quyidagicha ma'lumot beradi:

Aqiyda so'zlarin qildim isbot,

Anga qo'ydim "Sabotul ojizin" ot.

"Sabot ul-ojizin" 300 yildan ko'proq vaqt mobaynida maktab va madrasalarda asosiy darslik, qo'llanma bo'lgan. Matbaa paydo bo'lgach Qozon, Boku, Toshkent, Xivada qayta-qayta bosilib chiqqan. Asarga bo'lgan qiziqish tufayli ko'plab sharhlar yozilgan. Jumladan, Tojuddin Yolchiqul "Risolai Aziza", Sayyid Habibulloh Yahyoxon "Hidoyat ut-tolibin", Rashid Zohid "Ravoyihur Rayhon". Muallif asarni yaratishda ikkita asosiy manbadan foydalangan. Birinchi manba: Qur'oni Karimdir. Ikkinchi manba: o'zigacha bo'lgan buyuk allolamalar: Sulaymon Boqirg'oniy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy asarlarining ta'siridir. Asar din-aqid bo'yicha diniy ko'rsatma beradi, shuning bilan birga adabiy buyuk xazina hamdir. Asar mazmunida Qur'on oyatlari, hadislar, mashhur so'fiy allomalar hikmatlari bilan uzviy uyg'unlik mavjud. Ayniqsa, nafsni jilovlash, sabrning oliy fazilat ekanligi, tavakkulning ma'rifat yo'lidagi o'rni, dunyo foniyligi, Allohga muhabbat bilan bandaning Haqqa yaqinlashuvi kabi mavzular doimo markazda turadi. Sofi Olloyor nafaqat muridlar, balki keng xalq ommasi uchun ham ruhiy dastur bo'la oladigan pandlar tizimini yaratadi.

Asarning g'oyaviy markazi — sabr, sobitlik va nafsni jilovlash masalalari. Sofi Olloyor sabrni inson hayotida uch toifada talqin qiladi: nafsning yomon xohishlariga qarshi sabr, dunyoviy musibatlarga sabr va Haq yo'lida sobitlikni saqlash sabri. Bu talqin Qur'on va hadisdagi sabr konsepsiyalariga uyg'un bo'lib, tasavvufning butun tarbiyaviy sistemasi aynan shu tushunchaga tayanadi. Muallifning fikricha, insonning

barcha ruhiy kamoloti sabr bilan bogʻliq boʻlib, u boʻlmasa, ilm ham, amal ham mukammal natija bermaydi. Sabrning bunday keng qamrovli talqini “Sabot ul-Ojizin”ni oddiy nasihatnoma emas, balki tasavvuf psixologiyasining yuksak namunasi sifatida koʻrsatadi.

Asarda nafs tarbiyasi muhim oʻrin egallaydi. Sofi Olloyor nafsni “insonning eng xavfli dushmani” deb ataydi va u bilan kurashni ruhiy rivojlanishning yagona yoʻli sifatida koʻrsatadi. Nafs bilan kurash haqidagi tushunchalar tasavvufdagi “jihodi akbar” — eng buyuk kurashga asoslanadi. Asarda nafsning bir necha bosqichi va ularning zararli oqibatlari misollar orqali yoritiladi; inson takabburlik, riyokorlik, hasad, ochkoʻzlik, jaholat kabi illatlardan xalos boʻlmas ekan, maʼnaviy yuksalishga erisha olmasligi taʼkidlanadi. Bu jihatlarni asarni zamonaviy psixologiya, oʻzini anglash va oʻzini boshqarish nazariyalari bilan hamohang qiladi. Asar tuzilishida hikmatli baytlar, nazmiy pandlar, qisqa badiiy lavhalar va umumlashtiruvchi irfoniy tafakkur unsurlari izchil beriladi. Baytlardagi metaforalar, majozlar, tasavvuf ramzlari mazmunni yanada boyitadi. Tavhid bobida turli bahslar koʻpaymasligi va chuqurlashib ketmasligi uchun ulugʻ arboblarni koʻp urinib ishlar qildilar. Bu eranlar ahli sunnat va jamoat yoʻlini tuzib ketdilar. Bu – ajab bir nozik yoʻl. Koʻp fahm-u farosat egalarining fahmlari uzilib, tariqi Haqdan chiqdilar va kofir boʻldilar. Yana ziyoda fahmsizlari ham bor edi, fahmlari yetmay, eʼtiqoddan mahrum boʻlib zindiq boʻldilar. Bu baytda, shuningdek, ilmi kalomni koʻp oʻrganmoqning harom ekaniga ham ishora bor. Aytadilarki, oʻrtacha zehnli kishi ilmi kalomni koʻp oʻrganmogʻiga zarurat yoʻqdir. Bunday kishi bu ilmni yomon mazhablarga javob berar darajada bilmogʻi kifoya qiladi.

“Sabot ul-Ojizin” ning pedagogik ahamiyati ham ulkan. Asarda yoshlar tarbiyasi, ota-onaga hurmat, halollik, ilmning fazilati, birovga ozor bermaslik, saxovatli boʻlish kabi ijtimoiy-axloqiy masalalar yuksak badiiy saviyada yoritilgan. Soʻfi Ollohyor piri murshid, yani ustoz sifatida oʻz shogirdlariga pand nasihat qilib aytadiki: “Ey shogird agar ustozingga ergashmay unga xilof ish tutsang, bir kuni pushaymon boʻlasan. Bu fikrni isboti sifatida jahon adabiyotining yetuk

namoyandalaridan biri bo'lgan Hofiz She'roziyning mashhur ushbu baytini keltirishimiz mumkun:

Botir sajjodani mayga agar piri mug'on aytsa

Yo'lovchiga ma'lum erur yo'l ahvoli va manzillar.

Asar zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda ham o'z qimmatini yo'qotmagan, balki bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida mustahkam manba sifatida qo'llanilmoqda.

Sofi Olloyor ta'limotiga ko'ra, insonning oliy vazifasi – Haqni tanish, o'zini poklash va ma'naviy yetuklikka erishishdir. U buni murakkab falsafiy tizim emas, balki amalga yaqin oddiy nasihatlar orqali bayon qiladi. “Sabot ul-Ojizin” shu jihati bilan boshqa pandnomalardan farqlanib, xalqchil ruh, ravshan ma'no, chuqur irfoniylilik va badiiy nafislik uyg'unligini namoyish etadi.

“Sabot ul-Ojizin” So'fi Olloyorning nafaqat tasavvufiy tafakkurida, balki o'zbek ma'rifiy merosida ham o'chmas iz qoldirgan benazir asardir. Undagi pandlar, irfoniyl qarashlar, ruhiy poklanishga da'vat etuvchi g'oyalar asrlar davomida xalq ma'naviyatini boyitib kelmoqda. Asarning bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmayotgani uning chuqur falsafiy mazmuni, inson ruhiyatiga yaqinligi va hayotiyiligi bilan bog'liq. Sofi Olloyor yaratgan bu pandnoma o'zbek xalqi ma'naviy olamida mukammal bir irfon darsi sifatida yashashda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sofi Olloyor. Sabot ul-Ojizin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992.
2. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
3. Qosimov B. Tasavvuf va o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Universitet, 2005.
4. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 1999.
5. Rajabov R. O'zbek mumtoz adabiyoti. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2012.
6. Abdullayev A. Sofi Olloyor hayoti va ijodi haqida // Sharq yulduzi. – 1984, №6.
7. Ochilov E. Tasavvuf manbalari va ularning adabiyotdagi talqini. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014.